



COCA KORPUSIDAN FOYDALANISHNI O‘RGATISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

G‘apporov Zayniddin Abdusalom o‘g‘li

Samarqand davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti

kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Tel: +998933505354

E - mail: zayniddin_gapparov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Corpus of Contemporary American English (COCA) korpusidan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Unda COCA orqali so‘zlarning real kontekstda qo‘llanishini, grammatik tuzilmalari va keng tarqalgan kollokatsiyalarni o‘rganish orqali o‘quvchilarning til sezuvchanligini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: korpus lingvistikasi, kollokatsiya, ingliz tili o‘qitish, kontekst, mustaqil o‘rganish, empirik metod.

KIRISH QISM.

Zamonaviy til o‘qitish metodlarida korpus lingvistikasi alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, COCA (Corpus of Contemporary American English) korpusi bugungi kunda ingliz tilini o‘rgatishda va o‘rganishda eng ishonchli va keng qamrovli resurslardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu korpus 1990-yillardan boshlab shakllantirilib, bugungi kunda 1 milliarddan ortiq so‘z namunalarini o‘z ichiga oladi [1, 89]. U beshta asosiy janr (og‘zaki nutq, badiiy asarlar, jurnalistik matnlar, gazeta maqolalari va ilmiy maqolalar) bo‘yicha muvozanatli tuzilgan bo‘lib, so‘zlarning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini batafsil tahlil qilishga imkon yaratadi [3, 147].

Nazariy asosda, COCA tilshunoslar va o‘qituvchilar uchun til birliklarini o‘rganishning empirik dalillarga asoslangan manbaidir [5, 93]. U so‘zlarning semantik maydonini, uslubiy ishlatilishini, va sintaktik modelini aniqlashga yordam beradi. Masalan, “impact” so‘zining ko‘p ishlatiladigan tuzilmalari - “have an impact on”, “negative/positive impact”, “environmental impact” - ni aniqlash orqali o‘quvchi ushbu so‘zning matndagi tabiiy ishlatilish shakllarini tahlil qiladi. Bu esa til sezuvchanligini rivojlantiradi va o‘quvchining tanqidiy fikrlash salohiyatini kuchaytiradi.

Amaliy jihatdan, COCA’dan foydalanishni o‘rgatish o‘quvchilarning mustaqil til o‘rganish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchi so‘zning faqat lug‘aviy tarjimasini emas, balki real kontekstda qanday ishlatilishini, qanday kollokatsiyalarda uchrashini va qaysi janrlarda afzal qo‘llanilishini ko‘rish orqali o‘z lug‘atini samarali tarzda boyitadi. Ayniqsa, “collocation awareness” – ya‘ni birga keluvchi so‘zlar bilan ishlash ko‘nikmasi yozma va og‘zaki nutqda tabiiy ifodalanish uchun muhimdir. Misol uchun, “take responsibility for”, “play a vital role in”, “be widely accepted that” kabi ifodalar IELTS kabi xalqaro imtihonlarda o‘quvchilarga yuqori ball olishda yordam beradi [10, 6].

Shuningdek, COCA’dan foydalanish o‘qituvchilarga interaktiv va zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish imkonini beradi. Dars jarayonida o‘qituvchi COCA’dan real misollar asosida mashqlar tuzishi, o‘quvchilarga kollokatsiyalar, sinonimlar, antonimlar va grammatik strukturalarni kontekstda tahlil qildirish orqali chuqur o‘zlashtirishga erishishi mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchida so‘zlarni yodlab olish emas, balki anglab va fikrga asoslab o‘rganish kompetensiyasini rivojlantiradi [7.29].

COCA saytidan foydalanish va “problem” so‘zini izlash bo‘yicha nazariy va amaliy qo‘llanma. Quyidagi bosqichlarda COCA saytida “problem” so‘zini qanday izlash mumkinligi va bu jarayon qanday nazariy ahamiyatga ega ekani bayon qilinadi.

1. Saytga kirish - COCA’ning rasmiy sahifasiga kirish uchun quyidagi manzildan foydalaning: <https://www.english-corpora.org/coca/> Tizimga kirish uchun avval ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishingiz va login

parolingiz orqali akkauntingizga kirgan bo‘lishingiz kerak. COCAning asosiy interfeysi ingliz tilida bo‘lsa-da, u juda sodda tuzilgan.

2. So‘zni qidiruv maydoniga yozish - bosh sahifada, chap tarafdagi oq qidiruv oynasi (Search box) joylashgan. Bu yerga izlamoqchi bo‘lgan so‘zni problem – deb kiriting [11] (1-rasm). Qidiruv oynasining ostida joylashgan “Find matching strings” tugmasini bosing. Bu tugma orqali siz yangi sahifaga yo‘naltirilasiz.



1-rasm. COCAda so‘zni qidiruv maydoniga yozish

Keyingi bosqich Corpus of Contemporary American English (COCA) dasturining tahlil qismi bo‘lib unda jadval chiqadi va unda turli sohalar (blog, web, TV/M, spoken, fiction, magazine, news, academic) bo‘yicha so‘z chastotasi (FREQ), umumiy so‘zlar soni (WORDS), va million so‘zga to‘g‘ri keladigan ulushi (PER MIL) beriladi. Natijalar til birliklarining qo‘llanishini yillar kesimida tahlil qilish imkonini beradi [11] (2-rasm).



2-rasm. COCAda so‘z chastotasi (FREQ), umumiy so‘zlar soni (WORDS).

So‘z chastotasi aniqlanganidan so‘ng Corpus of Contemporary American English (COCA) korpusining CONTEXT bo‘limi keladi. Bu bo‘limga o‘tish uchun “context” qismi bosiladi. Bu qismda “problem” so‘zining turli matn turlarida akademik, badiiy, blog, yangiliklar va boshqalarda ishlatilish misollari keltirilgan. Jadvalda har bir so‘z birikmasi kontekstda ko‘rsatilgan [11] (3-rasm).

3-rasm. (COCA) korpusining CONTEXT bo‘limi

Bu bo‘limda o‘rganuvchilar “problem” bilan ko‘p birga ishlatiladigan boshqa so‘zlarning ro‘yxatini ko‘rishlari mumkin. Bu ro‘yxat statistik asosda tuzilgan bo‘lib, u real matnlarda “problem” so‘zi bilan eng ko‘p birikkan birliklarni aks ettiradi. Rasmda keltirilgan COCA natijalarida “problem” so‘zining eng ko‘p uchraydigan asosiy 10 ta collocation (so‘z birikmasi) quyidagilardir:

1. medical problems – tibbiy muammolar
2. higher rates of problems – muammolarning yuqori darajasi
3. a problem among people – odamlar orasidagi muammo
4. help that person solve a problem – muammoni hal qilishga yordam berish
5. true magnitude of the problem – muammoning haqiqiy ko‘lami
6. long-standing problems – uzoq davom etayotgan muammolar
7. safety problems – xavfsizlik muammolari
8. social problems – ijtimoiy muammolar
9. problems arise over issues – muammolar masalalar ustida paydo bo‘ladi
10. problems before the decision – qarordan oldingi muammolar

Ushbu collocationlar “problem” so‘zining eng tabiiy va keng ishlatiladigan kontekstlarini aks ettiradi asosan akademik, yangiliklar va ijtimoiy matnlarda uchraydi.

Bu bo‘lim orqali o‘quvchi yoki tadqiqotchi “problem” so‘zining kollokatsion imkoniyatlarini tahlil qiladi. Bunda aynan qanday fe‘l yoki sifatlar bilan birikib ishlatilgani aniqlanadi, bu esa o‘quvchilarga real til muhitida mazmunli va tabiiy iboralarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, COCA (Corpus of Contemporary American English) bu ingliz tilining real va zamonaviy qo‘llanilishini chuqur o‘rganish imkonini beruvchi boy til resursidir. Ushbu korpus orqali so‘zlarning kontekstdagi ishlatilishi, ularning grammatik tuzilmalardagi o‘rni, kollokatsiyalari hamda janrga xos uslubiy farqlari aniq tahlil qilinadi. Ayniqsa, “problem” kabi keng qo‘llaniladigan so‘zlarni COCA yordamida o‘rganish o‘quvchilarga nafaqat so‘z ma‘nosini, balki uning haqiqiy hayotdagi ishlatilishini ham tushunishga yordam beradi.

Bu jarayon o‘quvchilarda til sezuvchanligini kuchaytiradi, yozma va og‘zaki nutqda boy hamda mazmunli ifodalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, COCA‘dan foydalanish o‘qituvchilar uchun ham zamonaviy, empirik asosga ega interaktiv dars usullarini joriy etishda muhim vosita hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Davies, M. The Corpus of Contemporary American English (COCA): 1990–2019. Brigham Young University, 2008. – 320 b.
2. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978. – 287 b.
3. Firth, J. R. Papers in Linguistics 1934–1951. Oxford University Press, 1957. – 256 b.
4. Chomsky, N. Syntactic Structures. The Hague: Mouton, 1957. – 117 b.
5. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge University Press, 1998. – 292 b.
6. Hunston, S. Corpora in Applied Linguistics. Cambridge University Press, 2002. – 234 b.
7. Kennedy, G. An Introduction to Corpus Linguistics. Longman, 1998. – 234 b.
8. McEnery, T., & Hardie, A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge University Press, 2012. – 287 b.
9. Sinclair, J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford University Press, 1991. – 179 b.
10. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 265 b.
11. The Corpus of Contemporary American English (COCA). [Online manba] <https://www.english-corpora.org/coca/>